# 7-SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV TOPSHIRIQLARNING ROLI

**Ergashev Jasur Bolta o‘g‘li**
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19998634

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 7-sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda interaktiv topshiriqlarning roli yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning matnni anglash darajasini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qib tushunish, interaktiv topshiriqlar, 7-sinf, matn, kognitiv faoliyat, kompetensiya, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль интерактивных заданий в развитии навыков смыслового чтения у учащихся 7 класса. В ходе исследования проанализированы методы, направленные на повышение уровня понимания текста.

**Ключевые слова:** смысловое чтение, интерактивные задания, 7 класс, текст, когнитивная деятельность, компетенция, эффективность обучения.

**Abstract:** This article examines the role of interactive tasks in developing reading comprehension skills among 7th-grade students. The study analyzes methods aimed at improving students’ text comprehension levels.

**Keywords:** reading comprehension, interactive tasks, 7th grade, text, cognitive activity, competence, learning effectiveness.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilish va uni to‘g‘ri anglash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasi o‘quvchilarning nafaqat matn mazmunini anglashiga, balki ularning nutqiy rivoji va tafakkur darajasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, 7-sinf o‘quvchilari matnni o‘qish jarayonida uning mazmunini yuzaki qabul qilish bilan cheklanib qolmoqda, asosiy g‘oya va muallif pozitsiyasini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa o‘quvchilarda matnni chuqur anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur muammo ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan an’anaviy metodlarning yetarli darajada samarali emasligi bilan ham izohlanadi.

O‘qib tushunish jarayoni murakkab kognitiv jarayonlar (idrok, diqqat, xotira va tafakkur) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonlarni faollashtirish ta’lim jarayonining interaktiv tashkil etilishini talab etadi. Interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarni faol o‘quv faoliyatiga jalb etish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda matn bilan ishlash ko‘nikmalarini chuqurlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, 7-sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda interaktiv topshiriqlardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qib tushunish ko‘nikmasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda murakkab kognitiv faoliyat sifatida talqin qilinadi. Xususan, Katrine Snov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda o‘qib tushunish jarayoni matn va o‘quvchi

o‘rtasidagi faol o‘zaro ta’sir sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi matnni passiv qabul qilmaydi, balki mavjud bilimlari asosida uni qayta ishlaydi va yangi ma’no hosil qiladi[1].

O‘qib tushunish jarayonining psixologik asoslari kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanib, matnni anglash darajasi ularning bilish faoliyati darajasiga bog‘liq bo‘ladi[2]. Shu bilan birga, Lev Vygotsky ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va hamkorlikning muhimligini ta’kidlab, o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasi yaqin rivojlanish zonasi orqali shakllanishini asoslab bergan[3]. Bu esa o‘qish jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyatini oshiradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda faol metodlarning ustuvorligi alohida qayd etiladi. Jumladan, John Dewey ta’limni faoliyatga asoslash zarurligini ilgari surgan bo‘lsa, tajribaviy o‘qitish nazariyasi muallifi David Kolb o‘quvchilarning faol ishtiroki bilimni chuqur o‘zlashtirishga olib kelishini asoslab bergan[4]. Ushbu qarashlar o‘qib tushunish jarayonida interaktiv topshiriqlarning samaradorligini nazariy jihatdan asoslaydi.

O‘zbek pedagog olimlari tomonidan ham o‘qib tushunish va interaktiv metodlar masalasi umumiy pedagogik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Jumladan, R.J. Ishmuhamedov va hammualliflar interaktiv metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [5]. O‘.Q. Tolipov va M.Usmonboyeva esa pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab, interaktiv yondashuvlarning didaktik imkoniyatlarini ochib beradi[6]. N.M. Mahmudov ona tili o‘qitish metodikasida matn bilan ishlashning ahamiyatini alohida ta’kidlab, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qib tushunish muhim omil ekanligini ko‘rsatadi[7].

Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat ilmiy ishlarda o‘qib tushunish ko‘nikmasi umumiy nazariy jihatdan yoritilgan bo‘lib, uni aniq sinf bosqichlarida, xususan 7-sinf darajasida interaktiv topshiriqlar orqali rivojlantirishga oid metodik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuningdek, interaktiv topshiriqlarning samaradorligi ko‘pincha tajriba-sinov asosida chuqur tahlil qilinmagan. Shu sababli, 7-sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini interaktiv topshiriqlar asosida rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi.

7-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida interaktiv topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim o‘quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirildi. Topshiriqlar mazmuni amaldagi 7-sinf ona tili darsligi materiallari asosida tanlab olindi va interaktiv shaklda qayta ishlandi. Interaktiv topshiriqlar quyidagi asosiy turlarga ajratildi:

1. Matn mazmunini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar. Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarning matnni umumiy anglash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Misol: O‘quvchilarga darslikdagi badiiy yoki publitsistik matn o‘qitiladi va quyidagi topshiriq beriladi:

---

[1] Snow C.E. Reading for understanding: Toward an R&D program in reading comprehension. — Santa Monica: RAND Corporation, 2002. — 137 p.
[2] Piaget J. The psychology of intelligence. — London: Routledge, 1950. — 182 p.
[3] Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
[4] Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. — New Jersey: Prentice-Hall, 1984. — 256 p.
[5] Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. — T., 2008.
[6] Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. — T., 2010.
[7] Mahmudov N.M. Ona tili o‘qitish metodikasi. — T., 2018.

a. Matnga sarlavha qo‘ying;
b. Matnning asosiy g‘oyasini aniqlang;
c. Matndan 2–3 ta muhim fikrni ajrating. Bu topshiriqlar o‘quvchilarning asosiy mazmunni ajratib olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

2. Tahliliy (analitik) topshiriqlar. Ushbu topshiriqlar matnni chuqurroq anglash va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga qaratilgan. Misol uchun quyidagi topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi:
a. Matndagi asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajrating;
b. Qahramonlarning xatti-harakatiga baho bering;
c. Matnda qo‘llangan til vositalarini aniqlang.

3. Savol tuzish va muhokama topshiriqlari. Interaktivlikni oshiruvchi asosiy vositalardan biri — o‘quvchining o‘zi savol tuzishidir.
a. Matn yuzasidan 3 ta savol tuzing;
b. Juftlikda savollar almashib, javob bering;
c. Eng qiziqarli savolni sinfda muhokama qiling.
Bu usul o‘quvchilarning faol ishtirokini va mustaqil fikrlashini kuchaytiradi.

4. Guruhli interaktiv topshiriqlar. Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga undaydi. Masalan, sinf 3 guruhga bo‘linadi:
1-guruh: matn mazmunini qisqacha bayon qiladi
2-guruh: matn bo‘yicha savollar tuzadi
3-guruh: matnga munosabat bildiradi. Guruhlar natijalari muhokama qilinadi.

5. Muammoli (problemali) topshiriqlar. Bu topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi.
1. Agar siz matndagi qahramon o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
2. Matndagi muammoni hal qilishning boshqa yo‘llarini taklif qiling.

6. Ijodiy topshiriqlar esa o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi:
1. Matn asosida kichik hikoya yozing;
2. Matn davomiga o‘z variantingizni tuzing;
3. Qahramon nomidan maktub yozing.

Ishlab chiqilgan interaktiv topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, matnni chuqur anglash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Interaktiv topshiriqlar o‘qib tushunish jarayonini tashkil etishda nafaqat metodik vosita, balki o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqaruvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi o‘quvchini matnni passiv qabul qiluvchi emas, balki mazmunni faol ravishda qayta ishlovchi subyekt darajasiga olib chiqishdan iborat.

O‘qib tushunish jarayonida kognitiv jarayonlar o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat ko‘rsatadi. Interaktiv topshiriqlar aynan shu jarayonlarni bosqichli faollashtirish imkonini beradi. Masalan, matn asosida savol tuzish topshirig‘i diqqatni muhim axborotga yo‘naltiradi, tahliliy savollarga javob berish tafakkurni faollashtiradi, guruhli muhokama esa xotirada mustahkamlash jarayonini kuchaytiradi. Shu tariqa, o‘qib tushunish jarayoni ko‘p bosqichli bilish faoliyatiga aylanadi. Interaktiv topshiriqlarning muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarda metakognitiv yondashuvni shakllantiradi. Ya’ni o‘quvchi nafaqat matn mazmunini anglaydi, balki o‘zining qanday o‘qiyotganini, qaysi joyni tushunmaganini va qanday strategiya qo‘llash kerakligini anglay boshlaydi. Bu esa o‘qib tushunish ko‘nikmasining yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi.

7-sinf bosqichida o‘quvchilarning abstrakt tafakkuri shakllanib borayotganligi sababli interaktiv topshiriqlar ayniqsa samarali hisoblanadi. Ushbu yosh davrida o‘quvchilar matn mazmunini tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va muallif pozitsiyasini tushunishga qodir bo‘la boshlaydi. Interaktiv topshiriqlar esa aynan shu qobiliyatlarni

rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, interaktiv topshiriqlar o‘qib tushunishni rivojlantirishda ijtimoiy omilni ham kuchaytiradi. Guruhli va juftlikdagi faoliyat orqali o‘quvchilar o‘z fikrini boshqalar bilan solishtiradi, muhokama qiladi va asoslaydi. Natijada matnni anglash individual jarayondan ijtimoiy muhokama jarayoniga o‘tadi, bu esa mazmunni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan qaraganda, interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qib tushunish faoliyatini uch yo‘nalishda rivojlantiradi:

- mazmuniy anglash (asosiy g‘oyani ajratish);
- tahliliy anglash (fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash);
- reflektiv anglash (matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish).

Bu bosqichlarning izchil tashkil etilishi o‘qib tushunish ko‘nikmasining sifat jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa shuki, interaktiv topshiriqlar o‘qib tushunish jarayonini faollashtiruvchi, tizimlashtiruvchi va chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ularning qo‘llanishi o‘quvchilarning matn bilan ishlash faoliyatini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi va o‘qish savodxonligini oshirishda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Iste’dod, 2008. — 180 b.
2. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. — 256 p.
3. Mahmudov N.M. Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. — 256 b.
4. Piaget J. The psychology of intelligence. — London: Routledge & Kegan Paul, 1950. — 182 p.
5. Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.